


GLOBAL IJTIMOIIY TARAQQIYOT UCHUN MUHIM MAYDON BO‘LGAN SAMMIT XALQARO HAMKORLIKNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQAADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan 3-4-noyabr kunlari Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Jahon sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 4-noyabr kuni Doha shahrida o‘tayotgan Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Jahon sammitida ishtirok etdi. Anjuman ishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterish, Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy, BMT Bosh Assambleyasi Raisi Annalena Berbok, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi raisi Lok Bahodir Txapa, davlat va hukumat rahbarlari, xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar vakillari ham qatnashdi.

Prezidentimiz so‘zining avvalida forumga yuksak darajada tayyorgarlik ko‘rilgani

uchun tashkilotchilarga minnatdorlik bildirib, global ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim maydon bo‘lgan sammit aynan Doha shahrida o‘tkazilayotgani katta ramziy ma’noga ega ekanini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda Qatar ijtimoiy inklyuzivlik va jadal taraqqiyot markaziga aylanib borayotganini ta’kidlab, ushbu mamlakat xalqini erishilgan muvaffaqiyatlar bilan samimiy tabrikladi.

Prezidentimiz bugungi kunda jahon hamjamiyati va milliy hukumatlar ijtimoiy farovonlikni ta’minlash hamda aholi turmush

darajasini oshirish yo‘lida birgalikda harakat qilayotganini ta’kidladi. O‘zbekiston, o‘z navbatida, barqaror taraqqiyotga erishishga qaratilgan xalqaro hamkorlikning barcha formatlari va tashabbuslarini doim qo‘llab-quvvatlaydi.

Keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan tamoyil ustuvor bo‘lgan, ijtimoiy adolat ta’minlangan, aholining ehtiyojmand qatlamlari samarali himoya qilingan ijtimoiy davlat barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

— Oxirgi yillarda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Biz bu yo‘ldagi islohotlarni bundan keyin ham davom ettiramiz, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari global ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilgan qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Kambag‘allikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish muhimligi ta’kidlandi.

— Rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy dasturlariga resurslarni keng jalb etish maqsadida kambag‘allikka qarshi kurashishning yangi moliyaviy arxitekturasini yaratish vaqti keldi deb hisoblaymiz, — dedi Prezidentimiz.

Shu munosabat bilan kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga amaliy ko‘mak beradigan Global ijtimoiy adolat fondini ta’ sis etish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari bandlik masalalarini samarali hal qilish uchun zamonaviy mexanizmlarni joriy etish muhimligini ta’kidladi.

Qayd etilganidek, yuqori texnologiyalar va sun‘iy intellektning jadal rivojlanishi dunyo bo‘ylab millionlab ish o‘rinlarining qisqarishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda xodimlarni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy sheriklik tamoyillarini mustahkamlash uchun davlat, biznes va jamiyatning faol hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz “Ijtimoiy mas’uliyat va munosib mehnat bo‘yicha global tashabbus”ni ishlab chiqish taklifi qo‘llab-quvvatlanishiga umid bildirdi.

Barcha uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish ijtimoiy muammolarni hal qilishning eng samarali yo‘llaridan biri ekanini ta’kidladi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, savdosislikning yillik iqtisodiy zarari 1,4 trillion AQSH dollarini tashkil etadi.

Bu Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yoshlarning jamiyatda va mehnat bozorida o‘z o‘mini topishini qiyinlashtiradi, ijtimoiy tengsizlikni esa kuchaytiradi.

Davlatimiz rahbari kuni kecha bo‘lib o‘tgan Ochlik va qashshoqlikka qarshi kurashish bo‘yicha global alyansning birinchi yig‘ilishida qabul qilingan qarorlarni O‘zbekiston to‘liq qo‘llab-quvvatlashini ta’kidladi.

Alyansning bo‘lajak sammitlaridan birini O‘zbekistonda o‘tkazish va ta’lim masalalarini kun tartibining asosiy mavzusi etib belgilash taklif qilindi.

Mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolarini tizimli himoya qilish zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan birgalikda Toshkent shahrida migrantlar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish bo‘yicha xalqaro forum o‘tkazishga hamda bu borada Global dastur qabul qilishga tayyor.

Prezidentimiz iqlim o‘zgarishining ijtimoiy hayotga ta’siri tobora kuchayib borayotganini ta’kidladi. Ekstremal ob-havo hodisalari, cho‘llanish va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, avvalo, aholining zaif qatlamlari — fermerlar, mavsumiy ishchilar, ekologik vaziyati murakkab bo‘lgan hududlarda istiqomat qiluvchi odamlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishni bandlik dasturlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish zarurligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston BMT tomonidan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilingan Orolbo‘yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi modelini ishga tushirish niyatida ekanini ma’lum qilib, mazkur tajribani jahon hamjamiyati bilan bo‘lishishga tayyorgilini bildirdi.

Sammitda qabul qilingan qarorlar butun dunyodagi millionlab odamlarga umid bag‘ishlashi, barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shishiga ishonch bildirildi.

— Xalqaro taraqqiyot yo‘lida ijtimoiy kelishuvni yangilash, har bir inson uchun munosib hayot tarzini yaratish bizning asosiy burchimizdir, — dedi davlatimiz rahbari.

Yakunda O‘zbekiston Prezidenti sammitda qabul qilingan Doha siyosiy deklaratsiyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlashini va uning barcha tamoyillarini hayotga tatbiq etishga tayyorligini tasdiqladi.

Doha shahriga amaliy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston — Qatar strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va ko‘p qirrali amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qatar Amirini Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Jahon sammiti tadbirlarining muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Turli darajalarda samarali muloqot va almashinuvlar olib borilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 45 foizga oshdi. Qatarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyiholari amalga oshirilmoqda. Parlamentlararo va madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanmoqda.

“Yashil” energetika, transport, geologiya, to‘qimachilik, turizm, infratuzilmani rivojlantirish va boshqa yo‘nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatar Davlatiga amaliy tashrfi yakunlandi.

Shayx Hamad nomidagi xalqaro aeroportda O‘zbekiston Prezidentini Bosh vazir o‘rinbosari, mudofaa vaziri Shayx Saud bin Abdulrahmon Ol Soniy va boshqa rasmiy shaxslar kuzatib qo‘ydi.

Davlatimiz rahbari AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etish uchun Vashington shahriga jo‘nab ketdi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IJTIMOIIY RIVOJLANISH BO‘YICHA IKKINCHI BUTUNJAHON SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli Rais Xonim Oliyalaril!
Hurmatli Bosh kotib Janobi Oliyarl!
Hurmatli davlat va hukumat rahbarlari!
Qadrli birodarim, Qatar Amiri Shayx Tamim Ol Soniy A‘lo Hazratlariga Butunjahon sammitini yuksak darajada tashkil etayotganlari va samimiy mehmondo‘stlik uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterish Janobi Oliyalariga ushbu anjumanni o‘tkazishdagi ulkan shaxsiy hisssasi uchun alohida tashakkur bildiraman.

Global ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim platforma bo‘lgan sammitning aynan Doha shahrida o‘tkazilayotgani katta ramziy ma’noga ega.

Qatar Davlati so‘nggi yillarda ijtimoiy inklyuzivlik va jadal taraqqiyotning global markaziga aylanmoqda. Bunday olamshumul yutuqlar bilan Qatar xalqini chin dildan tabriklayman.

Bugungi kunda ijtimoiy farovonlikni ta’minlash, aholi turmushini yaxshilash borasida dunyo hamjamiyati va milliy hukumatlar birgalikda harakat qilayotgani e’tiborga molikdir.

O‘zbekiston barqaror taraqqiyot sari barcha xalqaro hamkorlik formatlari va tashabbuslarini doim qo‘llab-quvvatlaydi.

Hurmatli xonimlar va janoblar!
Biz keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan tamoyil ustuvor bo‘lgan, ijtimoiy adolat ta’minlangan, ehtiyojmand aholi samarali himoya qilingan jamiyat barpo etmoqdami. Bu yo‘ldagi qat’iy pozitsiyamiz yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yildi hamda mamlakatimizning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi e‘lon qilindi.

Avval tarqoq bo‘lgan ijtimoiy himoya dasturlari yagona tuzilma — Ijtimoiy himoya milliy agentligi asosida birlashtirildi. Yangi ijtimoiy himoya modelimiz jamiyatning quyi bo‘g‘ini bo‘lgan mahalladan boshlab, har bir xonadon va oilani qamrab olmoqda.

Oxirgi yillarda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Biz bu yo‘ldagi islohotlarni bundan keyin ham davom ettiramiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!
Jahonda murakkab iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar kechayotgan hozirgi sharoitda quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman.

Birinchidan, kambag‘allikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish muhim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda 1 milliard 100 million aholi kambag‘allikda umr kechirmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarning ijtimoiy dasturlariga resurslarni keng jalb etish maqsadida kambag‘allikka qarshi kurashishning yangi moliyaviy arxitekturasini yaratish vaqti keldi deb hisoblaymiz.

Bu borada ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, kambag‘allikni qisqartirishga amaliy yordam beradigan Global ijtimoiy adolat fondini ta’ sis etishni taklif etamiz.

Ikkinchidan, bandlik masalasini samarali hal etishda yangi, zamonaviy mexanizmlarni ishga tushirish dolzarb ahamiyatga ega.

Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda global ishsizlik darajasi 5 foizni tashkil etdi. Yuqori texnologiyalar, sun‘iy intellektning jadal kirib kelayotgani dunyoda millionlab ish o‘rinlarining yo‘qotilishiga olib kelmoqda.

Bunday sharoitda hukumatlar va biznes ijtimoiy hamkor sifatida xodimlarni qo‘llab-quvvatlashga katta ahamiyat berishi zarur. Shu munosabat bilan ijtimoiy mas’uliyat va munosib mehnat bo‘yicha global tashabbusni ishlab chiqish haqidagi taklifimizni ma’qullaysiz deb ishonamiz.

Uchinchidan, barcha uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy muammolarga samarali yechim topish mumkin.

Hozirgi davrda savdosislikning yillik iqtisodiy zarari 1,4 trillion AQSH dollariga teng deb baholanmoqda. Busesa yosh avlodni ijtimoiy hayot va mehnat bozorida o‘z o‘mini topishini qiyinlashtirmoqda hamda tengsizlikning keskin o‘shishiga sabab bo‘lmoqda.

Biz kecha o‘tgan Ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash bo‘yicha Global alyansning ilk uchrashuvi qarorlarini to‘liq ma’qullaymiz. Uning kelgusi sammitlaridan birini O‘zbekistonda o‘tkazishni va ta’lim masalasini asosiy kun tartibi sifatida belgilashni taklif qilamiz.

To‘rtinchidan, mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolarini tizimli himoya qilish zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi kunda dunyoda 300 milliondan ortiq migrantlar o‘zga yurtlarda mehnat qilmoqda. Afsuski, ularning haq-huquqlari buzilishi bilan bog‘liq holatlar ko‘plab uchramoqda.

Kelgusi yili xalqaro mehnat va migratsiya tashkilotlari bilan birgalikda O‘zbekistonda Migrantlar va ularning oilalarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish bo‘yicha xalqaro forum o‘tkazish va Global dastur qabul qilishni taklif etaman.

Beshinchidan, barchamiz iqlim o‘zgarishining ijtimoiy hayotga ta’sirini yaqqol sezib turibmiz.

Ekstremal ob-havo, cho‘llanish, bioxilma-xillikning yo‘qolishi, eng avvalo, zaif qatlamlar — dehqonlar, mavsumiy ishchilar, murakkab ekologik vaziyatdagi mintaqalar aholisi hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni bandlik dasturlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha kompleks choralarni ko‘rish — juda dolzarb vazifa. Bu borada Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyasi bilan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilingan Orolbo‘yi mintaqasida Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi modelini ishga tushirish niyatidami. Va bu yo‘nalishdagi tajribamizni jahon hamjamiyati bilan o‘rtoqlashishga tayyormiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Bugun biz qabul qilayotgan qarorlar jahondagi millionlab odamlarga ishonch va umid bag‘ishlashi, barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga salmoqli hissa qo‘shishi shubhasiz.

Xalqaro taraqqiyot yo‘lida ijtimoiy kelishuvni yangilash, har bir inson uchun munosib hayot tarzini yaratish bizning asosiy burchimizdir.

Shu ma’noda, bugun qabul qilinayotgan Doha siyosiy deklaratsiyasini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Biz unda belgilangan tamoyillarni hayotga to‘liq tatbiq etishga tayyormiz. Hech shubhasiz, ushbu tarixiy deklaratsiya Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida umumiy sa’y-harakatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

So‘zimming yakunida barchangizga omad va yutuqlar, Butunjahon sammiti ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AQSHGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 5-noyabr kuni amaliy tashrif bilan Vashington shahriga keldi.

“Endryus” aviabazasida davlatimiz rahbarini AQSH Davlat kotibining o‘rinbosari Kristofer Landau, AQSH — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 5-6-noyabr kunlari bo‘lib o‘tadi. O‘zbekiston Prezidenti Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashadi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etadi.

Tadbirlar dasturidan AQSH Kongressi va hukumati vakillari bilan muzokaralar,

ushbu mamlakat yetakchi kompaniyalarining rahbarlari bilan alohida uchrashuvlar hamda ishbilarmon doiralar ishtirokidagi davra suhbatlari ham o‘rin olgan.

Amaliy tashrif bilan Vashington shahriga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyevni AQSHda ishlayotgan va ta’lim olayotgan bir guruh vatandoshlarimiz kutib oldi. Davlatimiz rahbari ular bilan samimiy suhbatlashib, katta muvaffaqiyatlar tiladi.

President.uz

DUNYO XALQLARINI EZGU MAQSAD YO‘LIDA BIRLASHTIRISH TASHABBUSLARI

TINCHLIKPARVAR VA FAROVONLIK SIYOSATI HAYOTIYLIGIGA QARATILGAN



Tafakkur tartib-tamoyiliga ko‘ra, sarhisob tadrijiy shakl kasb etishi lozim aslida. Biroq bugun bu an’anadan bir oz chekinib, gapni oktyabr oyining uchinchi o‘n kunligida Prezidentimizning bevosita ishtirokidagi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida beqiyos muhim o‘rin tutgan ikki voqeaga e’tibor qaratishdan boshlasak, mantiqqa zid bo‘lmasa kerak.

Zero, Samarqand shahri BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO) Bosh konferensiyasi 43-sessiyasiga mezbonlik qilganini hamda O‘zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va

hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolashini nafaqat oktabr oyi, balki joriy yilning eng muhim voqealari qatorida e’tirof etish mumkin.

Davomi 3-betda



O‘ZBEKISTON – AQSH: STRATEGIK SHERIKLIK MINTAQALARARO ALOQALAR DRAYVERI SIFATIDA

4-noyabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Vashington shahriga bordi. Vashingtonda davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining “C5+1” formatidagi sammitida ishtirok etadi. Shuningdek, AQSH Prezidenti Donald Tramp, Senat va Kongress vakillari hamda turli vazirlik va idoralar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazadi.

2015-yil noyabr oyida Samarqandda ishga tushirilgan “C5+1” formati mintaqaviy taraqqiyot, iqtisodiy barqarorlik, ekologiya, energetika va xavfsizlik masalalarida hamkorlik va muvofiqlashtirishning muhim mexanizmiga aylandi. Uning asosiy maqsadi — doimiy diplomatik muloqotni yo‘lga qo‘yish, dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashish, transport va energetik bog‘liqlikni mustahkamlash, savdo, biznes va humanitar hamkorlikni rivojlantirishdir. Ushbu formatning birinchi yig‘ilishida qabul qilingan “Hamkorlik va sheriklik to‘g‘risida”gi qo‘shma deklaratsiya AQSHning Markaziy Osiyo davlatlarining suvereniteti, mustaqilligi va hududiy

mart, Olmaota shahri) va Muhim minerallar bo‘yicha muloqot (2024-yil fevral) kabi tashabbuslarning ishga tushirilishi bilan yodda qoldi. Format doirasida 13 marotaba vazirlar darajasida, 3 marotaba esa yuqori darajadagi uchrashuvlar o‘tkazildi. Shuningdek, iqlim, rivojlanish, Afg‘oniston va boshqa ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha maxsus forumlar tashkil etildi.

O‘zbekiston “C5+1” formatida faol va konstruktiv pozitsiyani egallab, o‘zaro hamkorlikning institutsionallasuvi, chegara xavfsizligini mustahkamlash, iqlim va ekologik muammolarga qarshi kurashishni faollashtirish, savdo, investitsiyalar, transport va energetika yo‘nalishlaridagi loyihalarni

sohalaridagi loyihalarni jadallashtirish (C5+1) kabi takliflar amaliy hayotga tatbiq etildi.

Ushbu ko‘p tomonlama tashabbuslarning amaliy natijalari ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mintaqaviy hamkorlikning mustahkamlanishi yangi eksport yo‘nalishlarini ochdi, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirdi, ekspertlar o‘rtasida bilim almashish platformalarini yaratdi, bu esa Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qildi.

O‘zbekistonning “C5+1”dagi faol ishtiroki AQSH bilan ikki tomonlama sheriklikni chuqurlashtirish siyosati bilan uyg‘undir. Hamkorlik siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, fan va madaniyat kabi barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanmoqda.

1992-yil 19-fevralda diplomatik aloqalar o‘rnatilganidan buyon rasmiy Toshkent va Vashington o‘rtasidagi munosabatlar salmoqli yo‘lni bosib o‘tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 15-17-may kunlari AQSHga rasmiy tashrifi muqobil burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu tashrif strategik sheriklikning yangi davrini boshlab berdi. Prezident, shuningdek, 2017-yil may oyida Ar-Riyozdagi sammitda, 2017 va 2025-yil sentabr oylarida BMT Bosh Assambleyasi sessiyalari doirasida AQSH yetakchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

2021-yilda ikki tomonlama siyosiy muloqot “O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik muloqotiga”ga aylantirildi. Uning yig‘ilishlari ikki davlat poytaxtlarida navbatma-navbat o‘tkazib kelinmoqda. 2024-yil 13-noyabrda Vashingtonda bo‘lib

o‘tgan to‘rtinchi yig‘ilishda bu formatning maqomini “Kengaytirilgan strategik sheriklik muloqoti” darajasiga ko‘tarishga kelishib olindi.

AQSH ma‘muriyati va maxsus maslahatchilarning O‘zbekistonga tashriflari ham muntazam tus olgan. 2025-yilda AQSH Prezidentining global sheriklik bo‘yicha maxsus vakili Paolo Zampollining tashrifi (2025-yil 28-avgust – 1-sentabr) hamda Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus maslahatchi Serjio Gor va davlat kotibining birinchi o‘rinbosari Kristofer Landauning tashrifi (25-27-oktabr) amalga oshirildi.

2025-yil 8-10-aprel kunlari O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidovning AQSHga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning yuqori darajada ekanini yana bir bor tasdiqladi. Tashrif doirasida AQSH Davlat kotibi Marko Rubio va AQSH Prezidentining Milliy xavfsizlik bo‘yicha maslahatchisi Maykl Uolts bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Tomonlar mintaqaviy va xalqaro masalalarni muhokama qilib, xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish, mintaqaviy bog‘liqlik va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish masalalarida strategik sheriklikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratdi.

O‘zbekiston — AQSH parlamentlararo aloqalari ham yuqori darajada. 2018-yilda AQSH Kongressida “O‘zbekiston bo‘yicha kokus” tuzilgan bo‘lib, unda ikki partiya vakillari ishtirok etadi. Kongress delegatsiyalarining tashriflari muntazam tashkil etilyapti.

Iqtisodiy va investitsion hamkorlik ham izchil rivojlanib bormoqda. Ikki tomonlama tovar aylanmasi hajmi va investitsiya loyihalari soni yil sayin o‘smoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda “Air Products”, “General Electric”, “General Motors”, “Boeing”, “Honeywell”, “Coca-Cola”, “John Deere” va boshqa nufuzli kompaniyalar faoliyat yuritaypti.

2025-yil 9-iyun kuni IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida O‘zbekiston

— AQSH biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Unda AQSHning 100 ga yaqin kompaniyasi qatnashdi. “Boeing”, “FLS”, “Visa”, “NASDAQ”, “Air Products”, “Franklin Templeton”, “Morgan Stanley” va boshqa kompaniyalar bilan muzokaralar o‘tkazildi va memorandumlar imzolandi.

AQSH O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lishini qo‘llab-quvvatlaydi. 2024-yil dekabrda O‘zbekistonning JSTga kirishi bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlovchi Bayonnoma imzolandi. Bu mamlakatimizning jahon savdo tizimiga integratsiyasida muhim qadamdir.

Madaniy-gumanitar sohani hamkorlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qayd etish joiz. Toshkent — Sietl, Buxoro — Santa-Fe, Zarafshon — Klinton shaharlari o‘rtasida sheriklik aloqalari o‘rnatilgan. Bu aloqalar madaniy va ta‘limiy loyihalar, turizm va biznes hamkorligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ta‘lim sohasida 2019-yilda Toshkentda Vebster universiteti filiali hamda Arizona davlat universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan Amerika texnologiya universiteti (AUT) muhim rol o‘ynamoqda. 2025-yil 30-avgust kuni AUTda ilm-fan va ta‘lim sohasidagi hamkorlik markazi — “AQSH burchagi” ochildi.

2023-yil oktabrda Toshkentda “Education USA” mintaqaviy forumi o‘tkazildi va unda 65 ta AQSH oliy ta‘lim muassasasi ishtirok etdi. O‘zbekistonda “American Councils” (ACIE) faoliyati qayta tiklandi, Tinchlik korpusi faoliyatini tiklash bo‘yicha ishlar davom etyapti.

Transport sohasida o‘rnatilgan yaqin sheriklik aloqalari ham yangi imkoniyatlar ochmoqda. Xususan, 2017-yil iyul oyidan boshlab milliy aviakompaniya tomonidan “Toshkent — Nyu-York — Toshkent” yo‘nalishi bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaparvozlar qayta yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, AQSH O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ichki islohotlarni izchil qo‘llab-quvvatlamogda. Davlat departamenti va Mehnat departamenti hisobotlarida odam savdosiga qarshi kurashish va bolalar mehnatining eng yomon shakllarini bartaraf etishdagi yutuqlar e‘tirof etilgan. O‘zbekiston paxtasi bolalar mehnati bilan bog‘liq mahsulotlar ro‘yxatidan chiqarildi. 2020-yil dekabr oyida esa O‘zbekiston vijdon erkinligi bo‘yicha “Alohida xavotir uyg‘otuvchi mamlakatlar” ro‘yxatidan chiqarildi, 2024-yil aprel oyida AQSH Savdo vakolatxonasi O‘zbekistonni intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha kuzatuv ro‘yxatidan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Xulosa o‘rinda ta‘kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning AQSHga amaliy tashrifi hamda “C5+1” sammitidagi ishtiroki ikki tomonlama va ko‘p tomonlama yo‘nalishlarda amaliy loyihalarni jadallashtirishga kuchli turtki beradi. Tashrif, shuningdek, siyosiy muloqotni mustahkamlaydi, avval imzolangan investitsiya kelishuvlari amalga oshirishni tezlashtiradi, ta‘lim va madaniy almashinuvlarni kengaytiradi, energetika, transport va raqamli texnologiyalarga doir loyihalarni kelishish va amalga oshirishga qo‘shimcha turtki beradi.

O‘zbekiston uchun bu — Markaziy Osiyoda faol va ishonchli sherik ekanini yana bir bor tasdiqlash imkoniyati bo‘lsa, AQSH uchun global barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim bo‘lgan mintaqada sheriklikni mustahkamlash platformasidir.

“Dunyo” AA

Nuqtayi nazar



Ko‘hna Samarqand. Bu nom yangraganda ko‘z o‘ngimizda Buyuk ipak yo‘lidagi zalvorli karvon, tuyalar qo‘ng‘iroqlari jarangi, boqiy tamaddun chorrachasi, Mirzo Ulug‘bek kashf etgan yulduzlar ilmi, Amir Temur saltanati qudrati namoyon bo‘la boshlaydi. O‘ziga xos o‘tmishga ega bu muazzam zamin butun insoniyatning bebaho madaniy merosi xazinasidir.

UNESCO tashkil topganining 80-yilligi arafasida o‘tkazilgan yirik forumning ochilish marosimida 190 ga yaqin davlatdan 2800 dan ortiq delegat, jumladan, Serbiya va Slovakiya Prezidentlari kabi 70 nafar yuqori darajali shaxs qatnashdi. Prezidentimiz marosimdagi nutqida bu tadbimi “Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli, jadal islohotlarga bo‘lgan yuksak ishonchning yorqin ifodasi”, deb baholadi. Ahamiyatlisi, davlatimiz rahbari UNESCOning ezuq maqsadlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun ilm-fan, ta‘lim va texnologiyalar sohasidagi global muammolarga yechim bo‘luvchi muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ular O‘zbekistonning kreativ fikrlaydigan yangi avlodni tarbiyalash va global texnologiyalarni o‘zlashtirish borasidagi ustuvor vazifalarini aks ettiradi. Jumladan, jismoniy va ijtimoiy xususiyatlaridan qat‘i nazar, har bir bolaga ta‘lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida UNESCOning alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta‘limni rivojlantirish platformasini joriy etish taklif qilindi.

Asosiy e‘tibor sun‘iy intellekt texnologiyalarini ta‘lim tizimiga keng joriy etishga qaratildi. Bu borada O‘zbekiston UNESCO ishtirokida “Sun‘iy intellekt — maktab” nomli namunaviy loyihani amalga oshirishga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, sun‘iy intellekt etkasi bo‘yicha xalqaro ekspertlar anjumanini o‘tkazish taklifi ilgari surildi. Kasb-hunar ta‘limida tajriba almashish uchun Jahon professional ta‘lim sammitini o‘tkazish rejsai ham qo‘llab-quvvatlandi.

Insoniyatning bebaho xazinasini bo‘lgan qo‘lyozmalar, arxivlar va boshqa qimmatli tarixiy hujjatlarni saqlash, ularning ochiqligini ta‘minlash maqsadida UNESCOning “Jahon xotirasi” dasturini rivojlantirishdan O‘zbekiston manfaatdor ekani ta‘kidlandi. Mazkur dastur yaratilgan sanani nishonlash maqsadida 19-noyabrni Hujjatli meros xalqaro kuni deb e‘lon qilish taklif etildi. Yana bir muhim taklif — UNESCO tuzilmasida Raqamli meros bo‘yicha xalqaro institut hamda tengsizlikni bartaraf etish maqsadida Xotin-qizlar yetakchiligi bo‘yicha UNESCO akademiyasi tashkil etish tashabbusi keng jamoatchilik olqishlariga sazovor bo‘lmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi tomonidan Samarqandda barcha qit‘alardan mashhur tadqiqotchilar, san‘at

namoyandalari, pedagog va ixtirochi xotin-qizlarning Ta‘lim, madaniyat va fan sohasidagi global forumini o‘tkazish taklifi ushbu soha vakillari salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish orqali global taraqqiyot hamda innovatsiyalarni tezlashtirishga qaratilgan. Bu UNESCOning fundamental va ustuvor vazifalaridan biri bo‘lgan gender tenglik tamoyilini amalda hayotga tatbiq etish demakdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalar, xususan, sun‘iy intellekt (SI)ni keng joriy etish orqali keskin o‘zgarishlar davriga kirdi. Bu sa‘y-harakatlarning asosiy maqsadi ta‘lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonlarini shaxsiylashtirish va talabalarni kelajak kasblari uchun tayyorlashdir. SI bo‘yicha ta‘lim dasturlari va kurslar jamlangan maxsus platforma yaratilishi esa talabalar va professor-o‘qituvchilarning bu boradagi bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda oshirishiga xizmat qiladi.

Samarqandda ilm-fan diplomatiyasi davom etar ekan, sessiya doirasida O‘zbekiston va Yaponiya oliygohlari rektorlarining “Bilim va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik: inson taraqqiyoti va innovatsiyalar yo‘lida fanlararo yondashuvlar” mavzusidagi beshinchi forumi bo‘lib o‘tdi. Bu anjuman UNESCOning global tadbiri doirasida o‘tkazilishi O‘zbekistonning ilm-fan, ta‘lim va innovatsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlikka sodiqligini yana bir bor isbotladi. Forum doirasida bo‘lib o‘tgan U2U uchrashuvlarda O‘zbekiston va Yaponiya oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazib, yangi strategik hamkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha fikr almashdilar. Nagoya universiteti prezidenti Naoshi Sugiyamaning “Biz O‘zbekiston oliygohlari bilan ilmiy hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma tadqiqotlar va ta‘lim dasturlarini rivojlantirishdan manfaatdormiz” degan so‘zlari bu kelishuvlar shunchaki qog‘ozdagi bayonnoma emas, O‘zbekiston va Yaponiya universitetlari o‘rtasidagi ilmiy tadqiqot va ta‘lim sohasidagi aloqalar tubdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga aniq ishora ekanini anglaymiz.

Yuqorida keltirilgan muhim takliflarning amalga tatbiq etilishi “Samarqand ruhi” shijoati bilan ilm-fanda yangicha faoliyat to‘lqini vujudga kelishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

To‘qimachilik



SANOAT MAHSULOTLARI YEVROPA BOZORIDA

Mamlakatimizda yaqin yillargacha paxtani qayta ishlash borasida deyarli yangi loyiha ishlab chiqilmagan. Oqibatda paxta mehnatiga yarasha naf keltirmasdi. Keyingi yillarda sohada yangi tizim yo‘lga qo‘yildi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tizimda mutlaqo yangicha yo‘l tanlandi. Avvalo, davlat buyurtmasidan voz kechilib, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tili. Natijada bugun O‘zbekiston paxta eksportchisidan yirik to‘qimachilik mahsulotlari resurs markaziga aylandi. Qisqasi, to‘qimachilik yangi O‘zbekiston sanoatining drayveri bo‘lmoqda.

Yurtimizdagi yangilanishlar to‘lqini odamlar turmush tarzi, dunyoqarashini o‘zgartirdi. Ularning hayotida yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bugun barcha jabhada yuqori qiymatga ega, xaridorgib, xorijbop mahsulot yaratishni qo‘llab-quvvatlashga muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga qaratilayotgan bunday loyihalar tufayli Ko‘kdala tumanida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, bir oz avval tuman hokimligi jamoasi Italiyaning “Cotonella” kompaniyasida bo‘lgan edi. Uchrashuv natijasida ikki tomonlama hamkorlik o‘rnatishga kelishib olingandi. Ko‘p o‘tmay, makzor yirik ishlab chiqarish kompaniyasi Ko‘kdalada fabrika ochdi.

Korxona 2023-yil yakunida ish boshlagan. Unga “Cotonella” brendi tomonidan birinchi bosqichda 1,2 million yevro investitsiya kiritildi. Shu orqali yiliga 1 million dona tayyor trikotaj kiyim ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

— Hozir korxonada 200 dan ortiq ish o‘mi bor, — deydi korxona rahbari Dovrug‘bek Inog‘omjonov. — Yil yakuniga qadar yana 100 nafar xotin-qizning bandligini ta‘minlashni reja qilganmiz. Korxonamizda ishchilar uchun barcha sharoit yaratilgan. Tikuvchilarimiz olis mahallalardan kelishi tufayli qatnov uchun avtobus qo‘yilgan. Har kuni ishchilarni o‘z vaqtida olib kelib, kechki paytda uyiga eltib qo‘yadi. Maosh xodimlarning ish tajribasiga qarab belgilangan. Yangi kelganlar ish o‘rganishga qiyinlamaydi. Ulariga malakali xodimlar ustozlik qiladi.

Korxonada asosan ayollar kiyim-kechaklari tikiladi. Mahsulotning asosiy qismi eksport qilinmoqda. Xususan, joriy yilning o‘tgan 9 oyida 2 million yevrodan ortiq qiymatdagi tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari Yevropaga eksport qilindi.

“Cotonella” korxonasi Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala tumanida Italiya kapitali ishtirokidagi dastlabki

korxonadir. Bu brend Italiya bozorining deyarli 70 foizini egallagan. Loyiha qiymati 5 million yevro bo‘lgan korxonada tayyorlangan mahsulotning xaridorlari yil sayin ko‘payib bormoqda.

— Bu yerda ishlayotganimga ikki yilcha bo‘lib qoldi, — deydi Go‘zal Jalayeva. — Kelganimda biror hunarim yo‘q edi. Shu yerda ish o‘rganib, malaka oshirdim. Fabrika rahbariyatining qo‘llab-quvvatlovi bilan o‘z o‘rnimga ega bo‘ldim. Bugun yangi ishga kelganlarga ustozlik qilyapman. Boshida oyligim 2 million so‘m atrofida edi. Hozir oshgan, ishimga yarasha. Ikki qizim universitetida o‘qiydi. Ularning o‘quv shartnoma pulini to‘lab beryapman. Bundan tashqari, ro‘zg‘orga ham nafim tegadi. Men yashaydigan Beglamish qishlog‘ining o‘zidan yigirmaga yaqin xotin-qiz shu yerda ishlayapti.

Ayni paytda korxona mutasaddilari ishni yangi bosqichga olib chiqadigan loyiha ustida ishlamoqda. Unga ko‘ra, korxonada raqamli texnologiya joriy etilib, “yashil” energiyadan foydalanishga o‘tiladi.

Prezidentimizning 2019-yil 12-fevraldagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 2019-yildan 2025-yilgacha to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Maqsad to‘qimachilik mahsulotlari eksport hajmini oshirish, aholini ish bilan ta‘minlash, xalq farovonligini yanada yuksaltirishdan iborat. Bugun Ko‘kdalada bu yo‘nalishda muhim qadamlar tashlanmoqda.

Ayni kunlarda ushbu korxona tomonidan tumanda ikki gektar maydonda yangi fabrika uchun majmua barpo etilmoqda. Ular ishga tushgach, ishlab chiqarish hajmi yanada ortib, qo‘shimcha ish o‘rinlari ochiladi.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

➡ Boshlanishi 1-betda

Jahon madaniy, ma’naviy va gumanitar hamkorlik markazi

Shu kunlarda boqiy Samarqand shahri jahonning madaniy, ma’naviy va gumanitar hamkorlik markazi ekanini yana bir bor namoyon etmoqda. UNESCO Bosh konferensiyasidek nufuzli anjumaning asrlar davomida Sharq va G’arbi bog’lab turgan, turli madaniyatlar, dinlar va ilm-fanlarning o’zaro ta’siriga sahna bo’lib xizmat qilgan shaharda o’tkazilishi bejiz emas.

Uning jahon miqyosidagi tadbir o’tkaziladigan joy sifatida tanlanishi yurtimizning madaniyat, ilm-fan, ta’lim, kommunikatsiya va axborot sohalaridagi yutuqlari hamda boy tarixiy va madaniy merosining yaqqol e’tirofi hamdir. Binobarin, UNESCO jahon xalqlarini bilim, madaniyat va fan orqali birlashtirishni maqsad qilgan nufuzli xalqaro tashkilot. Uning asosiy maqsadi ta’lim, fan, madaniyat, kommunikatsiyalar, turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko’maklashishdir. Bu xalqaro tashkilot yalpi savodsizlikka qarshi kurashish, maorif tizimini rivojlantirish, milliy madaniyatlarini o’rganish, atrof-muhit va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish kabi keng qamrovli masalalarni hal etishga ham katta hissa qo’shib kelmog’da.

Darvoqe, shu yerda yana bir gapni aytib o’tishimiz joizga o’xshaydi: ushbu nufuzli tadbir so’nggi 40 yilda birinchi marta Fransiya poytaxtidan tashqarida o’tkazilyapti. Forum dunyoning deyarli barcha davlatlardan delegatlarni jamladi va O’zbekistonning sayyohlik salohiyatini namoyish etish uchun o’ziga xos platforma ham bo’ldi. Mamlakat uchun ushbu tadbir jahon turizmi va sivilizatsiyalar mulqotini markazi maqomini mustahkamlash, sanoatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlik uchun yangi uqlarni ochishda muhim qadamdir. Bunday nufuzli tadbirning muvaffaqiyati o’tkazilishi katta shara’f va mas’uliyat. Zero, u O’zbekistonning xalqaro maydondagi obro’sini yanada oshiradi, madaniyatlararo mulqot va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz 30-oktabr kuni anjumaning ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq so’zladi. Nufuzli tadbir ishtirokchilarini madaniyatlar va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan mehmondo’st O’zbekiston zaminida samimiy qutladi.

Davlatimiz rahbari so’zining avvalida martabali mehmonlarni jamlagan forumning mamlakatimizda o’tkazilayotgani tashkilotga a’zo davlatlarning yangi O’zbekistondagi keng ko’lamli, jadal islohotlarga yuksak ishonchining yorqin ifodasi sifatida qabul qilinishini ta’kidladi. Shuningdek, tashkilot o’zining 80 yillik faoliyati davomida ta’lim, fan, madaniyat va axborot sohalarida global hamkorlik, ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashga ko’maklashadigan nufuzli xalqaro institutga aylanganini qayd etdi.

Mamlakatimiz yetakchisi, shuningdek, UNESCO faoliyatining asosiy yo’nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. UNESCOning alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirish platformasini yaratish va Jahon professional ta’lim sammitini o’tkazishni taklif qildi. O’zbekiston UNESCO shafeligida “Sun’iy intellekt — katta” yul loyihasini amalga oshirish va sun’iy intellekt etkasi bo’yicha xalqaro ekspertlar forumini tashkil etishga tayyor ekanini bildiradi.

Ma’ruzada nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash zarurligi ta’kidlandi. UNESCOning xalq og’zaki ijodi, qo’lyozmalar, arxivlar va qimmatli tarixiy hujjatlar, madaniy ma’lumotlar kabi noyob meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash maqsadida ta’xis etilgan “Jahon xotirasi” dasturini rivojlantirishdan manfaatdorlik bildirildi.

19-noyabr sanasini Xalqaro hujjati meros kuni deb e’lon qilish, shuningdek, UNESCO tuzilmasida Raqamli meros xalqaro institutini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Bundan tashqari, davlatimiz rahbari 2027-yilda Buxoroda UNESCOning ijodiy shaharlar tarmog’i doirasida Hunarmandlik va xalq amaliy san’ati bo’yicha xalqaro kongress o’tkazishni taklif etdi.

Prezidentimiz gender tenglikni ilgari surish va xotin-qizlarning yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida UNESCOning Xotin-qizlar yetakchiligi akademiyasini tashkil etish hamda Samarqandda dunyoning barcha qit’alaridan taniqli tadqiqotchilar, san’at namoyandalari, pedagoglar va novatorlar ishtirokida Ta’lim, madaniyat va ilm-fan sohalaridagi xotin-qizlarning global forumini o’tkazish tashabbusini e’lon qildi.

Iqlim inqiroziga qarshi birgalikda samarali kurashish ham dolzarb masala sifatida qayd

etildi. Davlatimiz rahbari iqlim o’zgarishi madaniy merosga salbiy ta’sir ko’rsatayotganini ta’kidlab, “UNESCOning ekologik poytaxti” global tashabbusini ta’xis etish, shuningdek, UNESCO Ijroiya kengashining globalashuv va iqlim o’zgarishi sharoitida madaniy merosni asrash to’g’risidagi rezolyutsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. O’zbekiston Xiva shahrida shu mavzuda xalqaro simpozium o’tkazishga tayyorligini bildirdi.

Ishirokchilar Prezidentimiz nutqida ilgari surilgan shu va boshqa qator taklif hamda tashabbuslarning ahamiyati va muhimligini e’tirof etdi. Ular hamkorlikning yangi yo’nalishlarini belgilash, o’zaro ishonch va global sheriklikni mustahkamlash, taraqqiyot barqarorligida muhim qadam bo’lishini ta’kidladi.

Strategik hamkorlikning yangi bosqichi

O’zbekiston Prezidenti 23-24-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan Belgiyada bo’ldi. Yevropaning ramziy poytaxti hisoblanmish Bryussel shahrida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen ishtirokida O’zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o’rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to’g’risidagi bitimni imzolashga bag’ishlangan tantanali marosim bo’lib o’tdi.

Yetakchilar imzolangan tarixiy bitim mohiyatini yuqori baholadi. Ushbu keng qamrovli hujjat O’zbekiston bilan YI hamkorligining nafaqat huquqiy asoslarini kengaytirishi, balki yangi kun tartibini shakllantirishi ta’kidlandi. Shuningdek, bitim tuzilmaga a’zo davlatlar bilan, eng avvalo, savdo, investitsiya, transport, energetika, iqlim, yuqori texnologiyalar va madaniy-gumanitar hamkorlik sohalaridagi aloqalarga kuchli sur’at bag’ishlashi qayd etildi.

Hujjat 9 ta bo’lim, 356 ta modda va 14 ta ilovadan iborat. U ikki tomonlama munosabatlarning deyarli barcha sohalarni qamrab oladi hamda siyosiy mulqotni mustahkamlash, savdo va investitsiya, barqaror rivojlanish, fan va ta’lim, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, atrof-muhit va iqlim o’zgarishiga alohida e’tibor qaratgan holda o’zaro manfaatli barcha yo’nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish uchun keng qamrovli huquqiy asosni shakllantiradi.

Tashrif doirasida bo’lib o’tgan yirik ko’pshma biznes forumi, Yevropaning yetakchi kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari bilan uchrashuvlar natijasida energetika, kimyo, muhim minerallar, logistika, to’qimachilik va farmatsevtika tarmoqlarida umumiy qiymati 10 milliard yevrodan ziyod bo’lgan yangi loyihalarini amalga oshirishga kelishib olindi. Bu Yevropa kompaniyalari ishtirokidagi umumiy qiymati 40 milliard yevrodan ziyod bo’lgan hozirgi loyihalar portfeliga salmoqli qo’shimchadir.

Ichiliklik, ochiqlik va natijadorlik — Prezidentimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. Har bir kelishuv, tashrif, har bir qaror yagona maqsad — O’zbekiston xalqi manfaatlarini himoya qilish va uning xalqaro maydondagi obro’sini yanada oshirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbarining Bryusselga tashrifi bu siyosatning navbatdagi amaliy ifodasi bo’ldi. Yevropa Ittifoqi komissari Marta Kos Prezidentimizga murojaat qilar ekan, **“O’zbekiston yangilanishlar sur’atini belgilayapti” va “Siz azmu shijoatini insonsiz”**, dedi samimiyat bilan. Bu so’zlar shunchaki diplomatik iltifot emas, balki islohotlar natijasiga berilayotgan haqiqiy baho, O’zbekistonning jahon siyosatidagi yangi rolining e’tirofi bo’ldi.

Ha, mazkur voqeikla dunyoning yetakchi siyosatchilari va ommaviy axborot vositalari katta e’tibor qaratdi. Jumladan, matbuotda yoritilgan shahrlar, maqolalarning mazmun-mohiyatida quyidagi fikrlar ustuvorlik kasb etdi.

“O’zbekiston Prezidentining Bryusselga rasmiy tashrifi va Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli yangi bitim imzolashini o’zbek diplomatiyasi tarixida muhim voqea bo’ldi... Yevropaning O’zbekistonga insonchi o’rti borayotgani, uning Yevrosiyodiga barqarorlik, barqaror rivojlanish va o’zaro hamjihatlikni ta’minlashdagi muhim roli e’tirof etilayotganini faqat oqlashlash mumkin”.

Laken saroyida O’zbekiston Prezidentining Belgiya Qirolli Filipp bilan uchrashuvi bo’lib o’tdi. Unda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb mavzular yuzasidan fikr almashildi.

Qiroll Filipp O’zbekiston yetakchisining YI rahbariyati bilan muzokaralari yakunlarini yuksak baholab, mamlakatimiz yetakchisini Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to’g’risidagi tarixiy bitim imzolanganini bilan samimiy tabrikhladi.

Yangi O’zbekiston shijoati

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo’ldi va 7-oktabr kuni Turkiya davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining Gabala shahrida o’tgan navbatdagi yig’ilishida ishtirok etdi.



Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko’p qirrali hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy sheriklikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari so’zining avvalida bu galgi yig’ilish murakkab geosiyosiy o’zgarishlar, dunyo va mintaqada xavfsizlikka tahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda o’tayotganini ta’kidladi.

Global vaziyatni chuqur tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish maqsadida TDT mamlakatlari tashqi siyosiy idoralari va maxsus xizmatlari rahbarlarining qo’shma uchrashuvlarini o’tkazish va bunday formatdagi birinchi yig’ilishni kelgusi yilda Samarqand shahrida tashkil etish taklif qilindi.

O’zbekiston yetakchisi qisqa muddatda jadal rivojlanib borayotgan nufuzli xalqaro tuzilmalar qatoriga kirgan Turkiya davlatlar tashkilotining o’rni va ahamiyati tobora ortib borayotganiga e’tibor qaratdi, amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning aniq masalalariga to’xtaldi. Tashkilotning nufuzi va salohiyatini oshirish, yaqin istiqbolda uning samarali hamkorlik maydoni sifatidagi rolini kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidladi.

— Turkiy davlatlar o’rtasida strategik sheriklik, abadiy do’slik va qardoshlik to’g’risidagi bitimni tezroq kelishib, qabul qilish tarafdorimiz. Albatta, bu muhim bitim hamkorligimizni rivojlantirish yo’lida asosiy siyosiy hujjat sifatida qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, amaliy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda mustahkam zamin bo’lib xizmat qiladi, — dedi Prezidentimiz. Shuningdek, ko’p qirrali sheriklikni kengaytirish va jadallashtirish maqsadida Turkiya davlatlar tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi va uni amalga oshirish bo’yicha alohida “yo’l xaritasi”ni ishlab chiqish taklif qilindi. Ushbu hujjatlarda qator aniq yo’nalish va chora-tadbirlarni aks ettirish zarurligi qayd etildi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, transport jihatidan o’zaro bog’liqlikni kuchaytirish va xalqaro tranzit yo’laklarini rivojlantirish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish, barqaror taraqqiyotning muhim drayveriga aylanyotgan sun’iy intellekt, raqamlashtirish va kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish kabi takliflar katta qiziqish bilan qabul qilindi.

Aslida, davlatimiz rahbarining xalqaro sammitlar, uchrashuvlar, mulqotlarda aytayotgan barcha takliflari, fikrlari zamirida umuminsoniyat manfaatlariga xizmat qiluvchi da’vat, tinchlik, barqarorlik, farovon hayot yo’lidagi g’oyalari mujassam. Bu so’nggi yillarda yangi O’zbekiston yuritayotgan do’stona tashqi siyosat samarasidir. Shu bois, galdagi sammitda ham Samarqand tomonidan bildirilgan tashabbuslar ishtirokchi davlatlar tomonidan faol qo’llab-quvvatlandi.

O’zbekiston yetakchisi yana bir muhim masalaga e’tibor qaratdi.

— Biz kelgusi yilda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 585 yilligi hamda ulug’ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavalludining 885 yilligini keng nishonlaymiz. Ana shu mumtoz siymolarning insonparvarlik, o’zaro do’slik va birdamlik haqidagi g’oyalari, bebaho adabiy merosini keng targ’ib etish maqsadida “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi turkib dunyo ma’naviy hayotida” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o’tkazishni taklif etamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

O’zbekiston Prezidenti 10-oktabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo’sligi Davlat rahbarlari kengashining Dushanbe shahrida bo’lib o’tgan navbatdagi yig’ilishida ishtirok etdi.

Hamdo’slik doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko’rib chiqilgan yig’ilishdagi nutqida davlatimiz rahbari ko’p tomonlama hamkorlik samaradorligini oshirish hamda mamlakatlar iqtisodiyoti barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan qator amaliy takliflar bilan chiqdi.

Jumladan: — global beqarorlik sharoitida MDH formati barqaror va zarur tuzilma sifatida o’zini namoyon

etayotganini ta’kidlab, e’tiborni hamkorlikning amaliy yo’nalishlariga qaratish;

— barcha transport turlari bilan integratsiyalashgan axborot-logistika markazlarini yaratish hamda transport sohasida davlat-xususiy sheriklik masalalari bo’yicha MDH mamlakatlari konferensiyasini O’zbekistonda o’tkazish;

— maxsus iqtisodiy zonalarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish bo’yicha “yo’l xaritasi”ni tayyorlash, shuningdek, MDH venchur platformasini yaratish orqali startaplar va innovatsiyalarni ilgari surish;

— Toshkent shahrida “INNOPROM” ko’rgazmasi doirasida MDH innovatsion sanoat forumini o’tkazish;

— MDH energetika sektorini innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va an’anaviy hamda “yashil” energetika bo’yicha qo’shma loyihalarini amalga oshirish;

— raqamlashtirish va sun’iy intellekt sohasida ko’p tomonlama amaliy harakatlar rejasini ishlab chiqish, shuningdek, fan, ta’lim va madaniyat sohalarida hamkorlikni kengaytirish;

— diplomlarni o’zaro tan olish bo’yicha yangi davlatlararo kelishuvni tayyorlash, shuningdek, Xiva shahrida MDH Yoshlar forumini o’tkazib, Yoshlar innovatsiya laboratoriyasini tashkil etish;

— MDH mamlakatlari tashqi siyosat idoralari va maxsus xizmatlar o’rtasida muvofiqlashtiruvni kuchaytirish, Afg’onistondagi infratuzilma loyihalarida birgalikda ishtirok etishni taklif qildi.

Prezidentimiz 9-oktyabr kuni Dushanbe shahrida bo’lib o’tgan “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi ikkinchi sammitda ham ishtirok etdi. Unda ko’p tomonlama sheriklikni yanada rivojlantirish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari ko’rib chiqildi.

Islohotlarning ustuvor yo’nalishi

O’zbekiston Prezidenti 17-oktabr kuni kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuv o’tkazib, nutq so’zladi. Davlatimiz rahbari o’z nutqida kasaba uyushmalari harakati a’zolariga o’zining yuksak hurmati va ezu tilarini ibhor qildi, har bir korxona va tashkilotga ishonchlik muhiti, mehnat jamoalariga rag’bat va adolat ruhini olib kirayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish, kafolatlaning ijtimoiy himoyatini ta’minlash bo’yicha mustahkam qonuniy asoslar yaratilgani ta’kidlandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to’g’risida”gi va “Kasaba uyushmalari to’g’risida”gi qonunlar qabul qilinishi bu sohada muhim qadam bo’ldi.

Mamlakatimiz Xalqaro mehnat tashkiloti standartlarini qabul qilayotgan eng faol davlatlar safidan joy oldi. Sakkiz yil oldin ushbu tashkilotning O’zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatlari soni 12 ta bo’lgan bo’lsa, hozirgi kunda 25 taga yetdi.

Olmlar, soha faxriylari va faollari tomonidan o’tkazilgan o’rganishlar yurtimizda kasaba uyushmalari harakatiga 1905-yilda asos solinganini isbotladi. Shu bois, bu yil mamlakatimiz bo’yab kasaba uyushmalari harakatining 120 yillik yubileyi keng nishonlanmoqda. Ushbu sana munosabati bilan Prezidentimiz mehnatkash xalqimizga chuqur hurmat va ehtirom ifodasi sifatida har bir hududda “kasaba uyushmalari bog’lari”ni tashkil etishni taklif etdi.

— Birgalikda boshlagan ishlarimiz har bir mehnat jamoasi, har bir xodim va uning oilasi uchun manfaatli bo’layotganiga yana bir bor amin bo’ldim. Bundan buyon ham “Inson qadri uchun” degan e’g’u g’oya Yangi O’zbekistondagi islohotlarning ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz 20-oktabr kuni Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu

yerdagi ekspozitsiyalar orqali xalqimizning boy tarixiy va ma’naviy merosini keng namoyish etishga qaratilgan ishlar bilan tanishdi.

Mazkur ulkan va noyob loyiha davlat rahbarining 2017-yil 23-iyundagi qaroriga asosan boshlangan. Ko’p o’tmay, 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni uning poydevoriga tamal toshi qo’yilgan edi. O’tgan davrda bu yerda katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Markaz qadimiy me’moriy an’analarimiz va milliy bezaklar uyg’unligida barpo etildi. Inshooting to’rt tomonida balandligi 34 metri peshtoqlar, o’rtada esa 65 metrl milliy uslubdagi gumbaz qad rostlagan.

Tashrif chog’ida Prezidentimiz zallardagi pardozlash va jihozlash ishlarini ko’zdan kechirdi, bo’limlar va ko’rgazmalarning mazmun-mohiyati, qo’llanilayotgan interfaol texnologiyalar bilan yaqindan tanishdi. Ekspонатlarini mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilarga har tomonlama qiziqarli hamda tushunarli qilib taqdim etish muhimligini ta’kidladi. Shu maqsadda markazda faoliyat yuritadigan mutaxassis va gidlar sonini ko’paytirish, ularni maxsus dasturlar asosida ta’limlash zarurligini qayd etdi.

Ushbu tashrifga qator xorijiy OAV ham e’tibor qaratdi. Jumladan, O’monning “Asdaa Oman” nashri Prezidentimizning markazdagi boy tarixiy-ma’naviy merosni keng ko’lamda namoyish etishga qaratilgan ishlarni ko’zdan kechirgani haqida maqola e’lon qildi.

“Markaz tarkibida 460 o’rinli anjumanlar zali ham qurib bitkazilgan bo’lib, xalqaro miqyosdagi uchrashuv va ilmiy konferensiyalar o’tkazish uchun barcha zamonaviy shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, majmuada “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Rennassans”, “Ikkinchi Rennassans”, “O’zbekiston XX asrda” hamda “Yangi O’zbekiston — yangi Rennassans” bo’limlari tashkil etilgan,” deyiladi maqolada.

21-oktabr — O’zbek tili bayrami kuni sifatida yurtimizda millat, ma’naviyat va ma’rifat bayrami sifatida keng nishonlanmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotimizdan mustahkam o’rin olgan qutlug’ sana munosabati bilan poytaxtimizda tantanali tadbir bo’lib o’tdi.

Davlatimiz rahbari O’zbekiston xalqiga bayram tabrigi yo’lladi. Qutlovda so’nggi sakkiz yilda amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar natijasida O’zbek tili rivojida yangi davr boshlangani ta’kidlandi. Til siyosatini yanada takomillashtirish, raqamli olamda o’zbek tilidagi axborot va manbalarni ko’paytirish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, ona tilimizni rivojlantirish zarurligiga e’tibor qaratildi.

25-oktabr kuni bugun va kelajak uchun qo’rquv hissi bo’lmaydigan vatanni barpo etish yo’lida mehnat qilyotgan soha vakillari — Ichki ishlar xodimlari o’z kash bayramini nishonladi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirida Prezidentimizning tizim xodimlari va faxriylariga bayram tabrigi o’qib eshittirildi.

Unda ichki ishlar tizimini xalqchil va samarali tuzilmaga aylantirish bo’yicha so’nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko’lamli islohotlar natijasida mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik muhitini mustahkamlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash bo’yicha mustahkam zamin yaratilgani ta’kidlangan.

Sana arafasida Prezidentimizning “Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to’g’risida”gi farmoni imzolangan edi. Unga ko’ra, bir guruh yoshlarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari — II darajali “Shon shara’f”, “Mardlik”, “Do’slik” ordeni, “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun”, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Tinimsiz sa’y-harakat va mehnat samarasi

27-oktabr kuni Prezidentimiz hozurida bo’lib o’tgan kengaytirilgan yig’ilishda joriy yilda iqtisodiyotda kutilayotgan natijalar va 2026-yil uchun mo’ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiyotimiz prognozdan ancha yuqori sur’atda — 7,6 foiz o’sdi. Sanoat hajmi 6,8 foiz, qurilish 14,2 foiz, xizmatlar 14 foiz, qishloq xo’jaligi 4,1 foiz oshdi. Oltin-valyuta zaxiralari o’tgan yildagiga nisbatan 35 foiz ko’payib, 55 milliard dollarga yetdi. Nufuzli xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz iqtisodiy istiqbollari yuqori baholamoqda. “Fitch Ratings” ilk bor mamlakatimiz suveren reytingini bir pog’onaga oshirgan bo’lsa, “Moody’s” va “S&P Global” o’z kutilmasini “barqaror”dan “ijobiy”ga o’zgartirdi.

“Eng muhimi, erishilgan natijalar aholi farovonligini oshirishga xizmat qilyapti”, dedi davlatimiz rahbari. Aholi daromadlari 18,4 foiz, omonatlar 35,3 foiz, o’rtacha ish haqi esa 19,2 foiz o’sdi. So’rovlar aholi va biznes o’rtasida ishonch muhiti kuchayganini, yangi ish o’rinlari va daromad manbalari kengayayotganini ko’rsatmoqda.

Prezidentimiz yuqori o’sish sur’atlarini yil yakunigacha saqlab qolib, yalpi ichki mahsulot hajmini 135 milliard dollardan oshirish iqtisodiy kompleksning asosiy vazifasi bo’lishini qayd etdi. Tanqidiy ruhda o’tgan yig’ilishda kelgusi yil uchun asosiy rejarlar ko’rib chiqildi.

Yana UNESCO anjumani haqida ikki og’iz...

Shu kunlarda jahon afkor ommasining nigohi qadim va hamisha navqiron Samarqand tomonda bo’lsa, yana bir e’tibor O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning dunyo xalqlarini ezgu maqsad yo’lida birlashtirish tashabbuslari, tinchlikparvar va farovonlik siyosati hayotiyiligiga qaratilgan.

UNESCO Bosh konferensiyasi ochilishi marosimida so’zga chiqqan Bosh konferensiya prezidenti Xondker Muhammad Talha, tashkilot Bosh direktori Odri Azule Samarqand ruhi, O’zbekiston Prezidenti haqida ko’p yaxshi va samimiy fikrlar bildirdi. Ularning so’zlaridan quyida keltiriladigan iqtiboslar maqolamizda “Kuraschik ko’p. G’olib esa bitta bo’ladi!” degan g’oyani ulug’lashga xizmat qilsa, ne ajab. Zero, Prezidentimiz timsolida O’zbekiston bugun siyosat maydonida ne-ne mamlakatlarni orzu qilgan martaba, daraja, e’tiroflarni qo’lga kiritmog’da, g’oliblik nashidasini surmog’da.

Xususan, Xondker Muhammad Talha bunday dedi: **“Buyuk o’zbek shoiri Alisher Navoiy bilim va donolik insonning bezagidir degan edi. Bu so’zlar O’zbekiston Prezidenti faoliyatida o’zining yorqin ifodasini topmoqda. Janob Prezident ilm-fan, boy madaniy meros, davlat xizmati va umumxalq manfaatlarini umumlashtirgan holda ushbu yo’lda fidokorona mehnat qilmoqda. Bugungi kunda ushbu qadriyatlar UNESCO g’oyalari bilan hamohangdir.**

Prezident Janobi Oliyarlari rahbarligida mamlakat barcha sohalarda misli ko’rilmagan taraqqiyotga erishdi. O’zbekiston o’zini dunyoga ochdi, mulqot va pragtik diplomatiya yo’lini tanladi. Mamlakat inson qad-qadrmatini ulug’lashga qaratilgan ezu tamoyillarni qo’llab-quvvatlagan holda har bir fuqaroning farovonligini ta’minlash yo’lida dadil idamlayapti”.

Odri Azule esa **“Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari bilan ushbu afsonaviy shaharda bo’lib turibmiz. Samarqand chindan ham afsonaviy shahar, ko’hna kentning geografiyasi va tarixi bo’linish istagiga qarshi turadigan mulqot va almashinuvni rag’batlantiradi.**

Samarqand unda qilingan ahdlar hech qachon buzilmaydigan muhim savdo markazi sifatida asta-sekin mustahkam shaharga, ulkan imperiya poytaxtiga, ziyolilar o’chog’iga, badiiy ijod kamaol topuvchi maskanga aylandi. O’zbekistonga mana shunday tashkilotchiligi, UNESCO bilan kengayib borayotgan sherikchiligi uchun chuqur minnatdorlik bildiraman”, dedi.

Darvoqe, o’zi bevosita ishtirok etmayotgan bo’lsa-da, matbuot yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali munosabat bildirayotgan dunyoning taniqli siyosatchilari qatorida Qirg’iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ham bor. U o’zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasida yozgan tabrigida mazkur tarixiy voqea Markaziy Osiyo uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

“UNESCO sessiyasining Samarqandda o’tkazilishi O’zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzining yuksak e’tirofidir. Bu butun Markaziy Osiyo mintaqasi madaniy, ma’naviy va gumanitar hamkorlik markazi sifatida tobora katta e’tirofga sazovor bo’layotganidan dalolat beradi. Samarqand shahri ilm, ma’rifat va ma’naviyat beshigi sifatida konferensiyaga alohida ramziy ahamiyat bag’ishlaydi. Bu O’zbekistonning sivilizatsiyalar o’rtasidagi ko’prik, tinchlik va hamjihatlik g’oyalaringiz markazi sifatidagi rolini yana bir bor namoyon etadi”.

Bugun bitta maqolada Prezidentimizning poytaxtimiz va mamlakatimizdagi o’nlab hududlarga borgan, buniyodkorlik ishlari hamda yuqori salohiyatli ishlab chiqarish korxonalari bilan tanishgan, bundan tashqari, davlatimiz rahbari hozurida o’tgan qator taqdimotlar, shuningdek, telefon orqali mulqot va nufuzli delegatsiyalar qabuli haqidagi hamma tafsilotlarga bafurja to’xtala olmadik.

Lekin bularning barchasiga shu yurt, shu jamiyat tara



4

2025-yil 5-noyabr, 226-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Sharh

Mahalla

—

O'ZGARISHLAR OSTONASI

Yaqin yillargacha mahalla deganda faqat turar joyingizda haqiqatda ro'yxatda turishingizni tasdiqlovchi ma'lumotnoma beradigan yoki bolalar pulini yozib, ijtimoiy nafaqa belgilaydigan idora ko'z oldimizda gavdalanardi. Mahallaning manzilini ham, nima ish qilishiyu vakolat va vazifalari nimalardan iborat ekanini ham ko'pchilik bilmasdi. Mahalla raisi va xodimlarining maqomi aniq belgilanmagani, arzimagan maosh tufayli bu idorada ishlashga ko'p qiziqish bildirilmagani bor haqiqat edi. Pensiyaga chiqqan yoki biror sabab bilan ishsiz qolgan obro'li odamga "Mahalla raisi bo'lib turing", deya iltimos qilinganini ko'p eshitganman. Chunki mahalla idorasi tugul, unda ishlaydiganlarning obro'-martabasi savolli edi. Mahalla instituti go'yoki jamoatchilik asosida faoliyat yuritardi.

Shu bois, mahallalarda yo'l, suv, gaz ta'minoti kabi hayotiy muhim infratuzilmalar bilan bog'liq qator ijtimoiy muammolar yig'ilib qolgandi. Odamlar asfalt ko'rimgan yo'llarni tuzatish yoki ko'chasidagi yarqosiz simyog'ochlarni almashirib berishlarini so'rab, idorama-idora yillab sarson bo'lardi. Tuman markazlaridagi qaysi idoraga bormang, turnaqator navbatga ko'zingiz tushardi. Arzimagan muammolar ham tuman hokimliklarida yoki tuman darajasida hal etilardi. Qisqacha aytganda, odamlar o'z muammolari bilan o'z hofiga tashlab qo'yilgandi. Kimning xonadonida nima gap-so'z bo'lyapti, moddiy ahvoli qanday, tirikchiligi qanday o'tyapti, farzandlari nima bilan band — bu kabi masalalar bilan hech kimning ishi yo'q edi. Birorta davlat idorasi yoki amaldori qiziqmasdi. Bunday muammolarni hal etishga mahalla idorasining na resursi, na imkoniyati va vakolati bo'lardi.

Islohotlar mahalla darajasiga tushirilgani yangi davrim eng katta muvaffaqiyati bo'ldi deyish mumkin. Chunki "Inson qadri uchun" tamoyili balandparvoz gaplar bilan emas, amalda elning birlamchi ehtiyojlarini qondirish, yaxshi yashashi uchun sharoit yaratish bilan ro'yobga chiqariladi.

Asrlar bo'yi shakllangan mahalla instituti bugun tubdan isloh qilindi. Zamon talabiga moslashtirildi. Mahalla nomigagina ishlaydigan emas, islohotlar markazidagi tuzilmaga aylantirildi. Odamlarning og'irini yengil, mushkulini oson qiladigan, muammolarini nafaqat tinglab, balki amalda yechib beradigan tom ma'nodagi institut shakllandi.

Bugun "mahalla yetilligi" tarkibiga mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiradi. Mahallaning barcha qatlami qamrab olingan. Ijtimoiy yordam va subsidiyalar aholining kambag'allikdan chiqishini ta'minlash uchun maqsadli va manzilli yo'naltirilishi hamda qarorlar qabul qilinishida ochliklik, haqqoniylik, ijtimoiy adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya etilishiga "mahalla yetilligi" mas'ul va javobgar.

Mahallalar "yetillik" tomonidan har bir ko'cha, har bir xonadon kesimida o'rganildi. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga qarab toifalarga ajratildi. Ijtimoiy ko'makka muhtoj, og'ir iqtisodiy inqirozga tushib qolgan odamlar reyestri shakllantirildi. Ularni kambag'allikdan chiqarishda "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" kabi ijtimoiy daftarlarning o'rni va ahamiyati katta bo'ldi.



jalb qilingan 100 million dollar ham shu maqsadlarga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, ushbu tuman va mahallalardagi drayver loyihalar infratuzilmasi uchun yana 2 trillion so'm berilishi belgilandi. Umuman, ushbu dasturni moliyalashtirish uchun 7 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilmoqda.

Viloyat hokimlarining o'zi ham 2 tadan, tuman hokimlari esa 1 tadan og'ir mahallani belgilab, ularga 5 milliard so'mdan yo'naltirishi ko'zda tutilmoqda. Bu sa'y-harakatlar orqali yana 236 ta mahalla ahli turmushida keskin o'zgarish bo'ladi.

"Tashabbusli budget" doirasida mahallada odamlarning o'zi faol bo'lib boshlagan loyihalarga ko'mak beradigan yangi tizim tatbiq etildi. Endilikda qaysi mahallada aholi yo'l, suv, maktab, bog'chani ta'mirlashni boshlagan bo'lsa, xarajatingiz yarmini davlat ko'taradi. Bu maqsadlar uchun kelgusi yilda yana mingta loyihaga budjetdan 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, barcha mahallada ixtisoslashuv yanada kuchaytirilmoqda. Natijada 200 ming aholi bandligini ta'minlaydigan mikroloyihalarni ro'yobga chiqarish mo'ljallanyapti. Mahallalarga o'z hududidagi ayrim toifadagi bo'sh davlat obyektlarini auktsionga chiqarish vakolati berildi. Sotuvdan tushgan mablag'ning 70 foizi mahallaning o'zida qoladi va infratuzilmaga sarflanadi.

Joriy yildan boshlab Soliq qo'mitasi yer va mol-mulk soliqlarini to'langanlik darajasiga qarab, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" reytingini e'lon qiladi. Bunda 100 talikka kirgan mahallaga "Tashabbusli budget"ning yangi tizimi bo'yicha infratuzilma xarajatingiz 75 foizi byudjetdan to'lab beriladi. Shuningdek, ushbu mahallalarning har biriga qo'shimcha 2 milliard so'mdan ajratiladi.

Qonunchilik palatasi deputatlariga o'z okrugidagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun har biriga 3 milliard so'mdan beriladi.

Mahalla hududida sanitariya, ekologiya va noqonuniy qurilish bo'yicha jarimalarining 10 foizi mahalla byudjetiga yo'naltiriladi. Ularining budjetiga 2026-yildan boshlab har yili 200 milliard so'mdan ajratiladi. Umuman, ushbu manbalar hisobidan kelgusi bir yil uchun 2 mingta mahallaga qo'shimcha 8,5 trillion so'm beriladi.

Binolarni zamonaviy servis obyektiga aylantirish uchun tadbirkorlarga qo'shimcha yengilliklar ko'zda tutilmoqda. Jumladan, shahar va viloyat markazida tadbirkorlar tomonidan qurilib, pastki qavatida "mahalla yetilligi" joylashadigan binolar 3 yil muddatga yer va mol-mulk solig'idan ozod qilinadi. Qishloq joylarda esa bu imtiyozlar muddati 7 yilga teng. Bino egasi bo'lgan tadbirkorlar ushbu muddat davomida foyda va aylanmadan soliqni 50 foiz pasaytirilgan stavkaga to'laydi.

Davlatimiz rahbari mahalla tizimini yanada rivojlantirish yuzasidan bo'lib o'tgan yig'ilishda "Islohotlarimizning ostonasi bo'lgan har bir mahallaga yangi O'zbekiston nafasini olib kirish, eng avvalo, "mahalla yetilligi"ning yagona jamoa bo'lib ishlashiga bevosita bog'liq", deya "yetillik" vakillariga katta ishonch bildirdi.

Aslida, bugungi islohotlar mahallalarda bo'y ko'rsatib, har bir xonadonga kirib boryapti. Odamlarimizdagi o'zibo'larchilik, boqimandalik kayfiyati o'rini ertangi kunga ishonch va xotirjamlik egallamoqda. Tadbirkorlik ko'nikmasi shakllanmoqda. Ijtimoiy daftarlar orqali qo'llab-quvvatlangan xonadon egalari ishsizlikdan bugun ish beruvchiga aylanmoqda. Oilasiga farovonlik, to'kinlik olib kirmoqda. Mahalladoshlarini ish bilan ta'minlamoqda. Bunday misollarni har bir mahalladan istagancha topish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz turmush farovonligini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarda "mahalla yetilligi" davlatimizga qanot bo'lib, islohotlarning haqiqiy ijrochisiga aylanmoqda.

Yunus BO'RONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

KO'ZGU

YANGI O'ZBEKISTON

Tahlil

HAR BIR RAQAM O'RTIDA ISLOHOTLARGA ISHONCH MUJASSAM

Bugun geosiyosiy ziddiyatlar, savdo yo'llaridagi uzilishlar, energiya bozorlaridagi beqarorlik va global raqobatning yangi qonunlari butun dunyo iqtisodiy manzarasini o'zgartiryapti. Bu sharoitda har bir davlat o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqmoqda: biri ehtiyotkorlik bilan oqimga moslashayotgan bo'lsa, biri yangi yo'nalish orqali iqtisodiyotini barqarorlashtirmoqda.

Dunyo miqyosida yuz berayotgan turli iqtisodiy beqarorliklar fonida mamlakatimizda so'nggi yillardagi iqtisodiy siyosat qayta formatlanib, ichki salohiyatga tayangan holda yangi o'sish modeli shakllantirilmoqda. Bu modelning asosiy tamoyili inson manfaatlarini, tadbirkorlik muhitini va samaradorlikni yagona tizim sifatida uyg'unlashtirishdir.

Bu jarayonda inson qadriini yuksaltirish, mehnatning qiymatini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan konsepsiyani shakllantirish muhimdir. Ilgarigi bosqichda asosiy maqsad faqat o'sish sur'atlariga erishish bo'lgan bo'lsa, bugun e'tibor markazida o'sishning sifati, uning jamiyat farovonligiga ta'siri va eng muhimi, inson hayotidagi amaliy ifodasi turibdi.

Shubhasiz, bu siyosat nafaqat tashqi aloqalarda, balki milliy iqtisodiyotimizning ichki dinamikasida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Masalan, Jahon banki O'zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda 6,2 foiz o'sishini bashorat qilmoqda. Osiyo taraqqiyot banki 6,6 foiz, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki esa 6,7 foizlik o'sishni kutmoqda.

Bu raqamlar shunchaki prognoz emas. Ular O'zbekistonga bo'lgan xalqaro ishonchning ifodasi. Dunyo iqtisodiyotida noaniqliklar avj olgan bir sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyoti barqaror o'sishni saqlab qolishi islohotlar izchilligi va xalq mehnati samarasidir. Bu faqat iqtisodiy natija emas, balki milliy g'urur, yangilanish va ishonch ramzidir.

Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishda mamlakatimiz iqtisodiy hayotining joriy yildagi natijalari hamda 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Bu faqat statistik hisobot emas, balki yangi iqtisodiy bosqich, yangi tafakkur va yangi mas'uliyat sari tashlangan qadam sifatida ahamiyat kasb etadi.

Yig'ilishda bildirilgan raqamlar so'nggi yillardagi islohotlarning hayotiy samarasini yaqqol ko'rsatmoqda. Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari mobaynida iqtisodiyotimiz 7,6 foiz o'sdi. Sanoat sohasida 6,8 foiz, qurilish 14,2 foiz, xizmatlar 14 foiz, qishloq xo'jaligida esa 4,1 foiz o'sish qayd etildi. Bu natijalar yil boshida belgilangan prognoz ko'rsatkichlardan ancha yuqori bo'ldi.

Ayniqsa, qurilish va xizmatlar sohasidagi



14 foizlik o'sish mamlakat bo'ylab yangilangan shaharlar, qurilayotgan uy-joylar, yo'llar va infratuzilmalar, zamonaviy xizmat markazlari — bularning har biri "yangi hayot sifatini" shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz **oltin-valyuta zaxiralari** ham so'nggi yilda 35 foiz o'sib, 55 milliard dollarga yetdi. Bu tashqi shoklar va beqaror bozor sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi muhim omildir. Zaxiralar faqat raqam emas, balki davlatning iqtisodiy immuniteti, kelajakka ishonchi va barqarorligi yo'lidir.

Xalqaro maydondagi ishonch mustahkamlanmoqda

Fitch Ratings agentligi mamlakatimiz suveren reytingini bir pog'onaga ko'tardi. Moody's va S&P Global esa o'z prognozlarini "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirdi. Bular O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi dunyodagi imijiga berilgan yuqori baho, islohotlar izchilligining e'tirofi bo'ldi.

Iqtisodiy o'sishning eng muhim mezonini uning xalq hayotidagi aksidir. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, aholi daromadlari 18,4 foiz, omonatlar 35,3 foiz, o'racha ish haqi

esa 19,2 foiz o'sdi. Mazkur ko'rsatkichlar ortida hayot sifati, ishonch va faol fuqarolik muhiti yaqqol namoyon bo'lyapti.

Ijtimoiy so'rovlar ham buni tasdiqlayapti: aholi va biznes o'rtasida ishonch muhiti mustahkamlanmoqda, yangi ish o'rnlari yaratilyapti, daromad manbalari kengaymoqda. Bu iqtisodiy o'sishning haqiqiy mohiyatidir. Chunki rivojlanish raqamlarda emas, balki odamlar hayotida, ularning yuzlaridagi ishonch va hayotdan rozilik hissida namoyon bo'ladi.

Har bir yangi qurilish maydonida, har bir yangi ishlab chiqarish korxonasida, kichik tadbirkorning yangi loyihasida bu o'zgarishlarning izi bor. Bu faqat iqtisodiy



o'sish emas, balki butun jamiyatning yangi salohiyati shakllanishidir.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi joriy o'sish sur'ati tasodif emas, uning zamirida ichki ehtiyojlar, bozor faolligi va investitsiya muhiti yaxshilanishi kabi qator omillar mujassam. Bugungi kunda o'sishning asosiy dvigatellari ichki iste'mol, qurilish, xizmatlar, sanoat va tashqi savdo bo'lib, ular iqtisodiyotimizni tubdan yangilayapti.

Ichki talab o'sishi faqat raqamlarda emas, hayotdaha ham ko'zga tashlanmoqda: bozorlarda faollik oshmoqda, xizmat ko'rsatish sohalari kengaymoqda, kichik biznesda yangi tashabbuslar ko'paymoqda. Ushbu jarayon, ayniqsa, shahar va tumanlardagi qurilish,

dividend siyosatini qayta ko'rib chiqish, infratuzilma loyihalarini tezlashtirish hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarni samarali boshqarish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Eng muhimi, mazkur vazifalar kelgusi avlodlar taqdiri, mamlakatning intellektual va ijtimoiy salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, bu rejalarni amalga oshirish uchun faqat iqtisodiy emas, balki **institutsional islohotlar, ijro intizimi va mas'uliyat madaniyatini** mustahkamlash talab etiladi. Ya'ni endi har bir rahbar, har bir tizim, har bir hudud o'z vazifasiga nafaqat hisobdor, balki javobgar bo'ladi.

Har qanday taraqqiyotning yuragi — insonning o'zi. Qurilayotgan binolar, ochilayotgan ishlab chiqarish quvvatlari, yangi xizmat turlari — bularning barchasi faqat tashqi ko'rinishdir. Iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy o'lchovi har bir oila hayotida nima o'zgardi, mehnat qadrlanayaptimi, farzandlar uchun qanday kelajak yaratilyapti degan savollarga javobdir.

"Yangi O'zbekiston" modeli shu tamoyilga asoslanadi: **iqtisod bu — inson qadriining ifodasi**. Barqaror o'sish, investitsiya va islohotlar faqat bir maqsadga xizmat qilishi kerak — inson hayotini yaxshilashga. Shu ma'noda, bu yilgi natijalar va kelgusi yil uchun belgilangan vazifalar faqat texnik yoki moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki ma'naviy majburiyatdir. Bu xalqimizga, uning ishonch va orzulariga bo'lgan va'dadir.

Barqarorlik faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqoriligi emas, balki ularning o'zgarishlarga chidamligi, salohiyatning kengayishi va eng muhimi, har bir inson hayotida o'z ifodasini topishidir. Shuning uchun ham taraqqiyot faqat iqtisodiy vazifa emas, **bu javobgarlikdir**.

Uzun yo'llar ham har doim birinchi qadaman boshlanadi. O'zbekistonning bugungi iqtisodiy taraqqiyoti so'nggi yillarda tashlangan katta qadamlar, muhim qarorlar va xalq ishonchining samarasidir. Lekin bu yo'lning oxiri hali ko'rinnagan, aksincha, oldinda yangi bosqichlar, yangi mezonlar, yangi fikrlash tarzi kutib turibdi.

Maqsad faqat raqamlar ortidan quvish emas. Inson uchun qulay iqtisodiyot, sha'nini his etgan jamiyat, har bir fuqaroch uchun imkoniyatlar yaratadigan muhit bunyod etilyapti. Chunki haqiqiy rivojlanish odamlarning hayotida sezilarli o'zgarish bo'lgandagina ma'no kasb etadi.

Raqamlar bu — faqat maydon. Ularni qanday mazmun bilan to'ldirish esa umumiy mas'uliyatdir. Agar har bir rahbar va har bir fuqaroch shu tuyg'u bilan ish tutsa, O'zbekiston uchun belgilangan maqsadlar faqat iqtisodiy yutuq emas, balki **yangilanish va ma'naviy yuksalishning belgisiga** aylanadi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Zamonaviy yondashuvlar

BARNAXUS MODELINIMANI ANGLATADI?



Xosiyat RAJAPOVA,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
bosh mutaxassisi

Dunyo bo‘ylab har daqiqada bir necha bola zo‘ravonlik qurboniga aylanmoqda. Ularning ayrimlari hayotdan ko‘z yumsa, qolganlari esa butun umr davomida ruhiy jarohat bilan yashashga majbur bo‘ladi. Ularga nisbatan zo‘ravonlik nafaqat bola sog‘lig‘iga, balki kelajagiga ham putur yetkazadi.

Ana shunday murakkab vaziyatda butun jamiyat — davlat idoralari, sog‘liqni saqlash muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahallalar birlashib, bolaga faqat mehr emas, balki kompleks yordam bilan yondashishi lozim.

Bugun O‘zbekiston Barnaxus modelini joriy etish orqali ana shu muammoni hal qilishga qat‘iy bel bog‘lagan. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalar uchun ularning o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda multidissiplinar va idoralararo javob berish xizmatlari. Talablar va tavsiyalar” O‘zbekiston milliy standarti aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Ushbu hujjat zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan bolalarga idoralarni muvofiqlashtirilgan, sohalararo xizmatlarni tashkil etuvchi



Skandinaviya davlatlarining Barnaxus modeli asosida yaratilgan zarur talab va tavsiyalarni belgilaydi. Bunda jamiyatda ko‘riyotgan har qanday chora-tadbirda bola manfaatiga ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Bu huquqiy majburiyat emas, balki axloqiy mas‘uliyatdir. Qanday mutaxassis, qaysi soha va qaysi idora bo‘lishidan

qat‘i nazar, har bir xizmat bolaning xavfsizligi, farovonligi va ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. Bolaning ovozi eshitilishi, tegishli ma‘lumotlar uning yoshi va darajasiga mos tilda yetkazilishi, fikrlari e‘tiborga olinishi shart.

Bola zo‘ravonlik natijasida nafaqat jabr ko‘radi, balki qayta-qayta jarohatlanishi mumkin. Uning ko‘plab soha va mutaxassislar oldida bir xil voqeani takror-takror hikoya qilishga majbur bo‘lishi retravmatizatsiya, ya‘ni qayta jarohatlanish xavfini oshiradi. Huquqni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya muassasalari orasidagi muvofiqlashtirilmagan hamkorlik bu jarayonni yanada og‘irlashtiradi. Shuning uchun Barnaxus modelidagi asosiy yechim idoralararo mustahkam muvofiqlashuv sifatida ko‘riladi. Ya‘ni jinoyat tergov jarayonidan to psixoterapevtik yordamgacha bo‘lgan butun xizmatlar majmui bir joyda, bitta muvofiqlashtiruvchi guruh tomonidan ko‘rsatiladi. Bu bolaga qulay, xavfsiz va sifatli yordam berishga asos yaratadi.

Har bir bola o‘ziga qilingan zo‘ravonlik bo‘yicha so‘roq jarayonida qulay muhitda bo‘lishi va o‘zini xavfsiz his qilishi muhim. Uning yoshi, jinsi yoki nogironligidan tashqari shaxsiy ehtiyojlari va hissiy holati ham inobatga olinishi lozim. Shuning uchun Barnaxus modelida so‘roq maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Audio va videoyozuvlar orqali hujjatlashtiriladi hamda takroriy so‘rovlar ehtiyojga qarab cheklanadi.

So‘roq qilish jarayoni real vaqt rejimida kuzatilishi, natijalardan sudda dalil sifatida foydalanish mumkin. Bu esa takrorlarni kamaytirib, bolani qayta jarohatlanishdan himoyalaydi.

Barnaxus modelining yana bir ustun jihati — tibbiy, ruhiy va psixologik xizmatlarning birgalikda taqdim etilishida. Bular ham maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday mutaxassislar nafaqat davolash, balki bolaning ehtiyojlarini baholash, terapiyani rejalashtirish va barcha manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ish yuritishga mas‘uldir.

Ushbu model bolalarga yordam berish barobarida butun jamiyatni o‘zgarishga chorlashga qaratilgan. U BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Uning samaradorligi faqat davlat idoralari emas, balki mahalliy hamjamiyatlar, NNTlar va ota-onalar ishtirokida oshirilishi mumkin.

O‘zbekistonda ushbu standartning amaliyotda qo‘llanishi natijasida zo‘ravonlikka uchragan bolalarni himoya qilish sohasidagi butun tizim



tubdan o‘zgartirilib, bolalarning manfaatlariga yo‘naltirilgan yangi yondashuv joriy etiladi.

Bugun mamlakatimizning bir nechta hududida tajriba tarzida Barnaxus modeli asosidagi xizmatlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mazkur modelning ishga tushirilishi bolalarning farovon kelajagi sari qo‘yilgan qadamdir.

Bugunning gapi

Bugungi global dunyo shiddati, turli mafkuralar to‘qnashuvi yosh avlodni o‘ta hushyorlik bilan tarbiyalashni taqozo etyapti. Bu ota-onalar, mahalla faollari, o‘qituvchilar, ayniqsa, ta‘lim tashkilotlari psixologlari zimmasiga har qachongidan ko‘p mas‘uliyat yuklaydi. To‘g‘ri, birgina psixologning yuzlab, minglab bola bilan ishlashi qiyin. Vazifa ko‘p, individual shug‘ullanishga hamisha ham imkon yo‘q. Biroq qanday bo‘lmasin, tarbiyada ta‘sirchanlikni oshirish, birgalikda natijadorlikka erishish shart.

TARBIYADA OGOHLIK OSHSA BOLANING BO‘SH VAQTI DUSHMANNING ISH VAQTIGA AYLANMAYDI

Zero, davlatimiz rahbari qaysi soha bo‘yicha, qaysi mavzuda yig‘ilish o‘tkazmasin, albatta, yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga e‘tiborli bo‘lish, ularning ham ma‘nan, ham jismonan, ham aqlan barkamol voyaga yetishi uchun barcha birdek javobgarligini ta‘kidlaydi.

Oxirgi ma‘lumotlar respublikamizdagi 10 mingdan ziyod maktabda 10 ming 812 nafar psixolog ishlayotganini ko‘rsatyapti. Ularning 1767 nafari amaliy psixolog, 5780 nafari pedagog-psixolog. Shu ma‘noda, maktablardagi psixologlarning sifat tarkibini oshirish, ularga qulayliklar yaratish, imtiyozlar berish bugunning dolzarb masalalaridan biri.

Psixologlar faoliyatida ham KPI tizimi joriy qilinadi

Maktab psixologlari birlashsa, katta kuchga aylanishini shu yil avgustda bo‘lib o‘tgan respublika seminarida ko‘rdik. Zero, eng ilg‘or psixologlarning yangi g‘oyalari, yangicha yondashuvlari bir maydonda jamlandi. Butun bir tumanda hamkasblariga yetakchilik qilayotganlar o‘zining tajribasi bilan o‘troqlashdi.

Raqamlashib borayotgan davr bolalari bilan ishlash pedagog uchun ham, psixolog uchun ham og‘ir. Ularning dunyoqarashi, ehtiyojlarini aniqlash, ijtimoiy va pedagogik yordam ko‘rsatish — bularning asosiy vazifasi. Biroq o‘qituvchilar orasida ham asabini jilovlay olmay, pedagogga xos bo‘lmagan xatti-harakatni qilayotganlar uchrab turibdi. Bu psixologlar xizmatiga ehtiyojni yanada oshiradi. Shundan kelib chiqib, soha xodimlarining sharoitini yaxshilash, kasbiy salohiyatini oshirish, amaliyotchilarni ta‘lim tizimiga jalb etish va rag‘batlantirish zarur.

Sifat tarkibini yaxshilash orqali psixologlar faoliyati samaradorligini oshirish, ish uslubini yanada takomillashtirish lozim. Chunki keyingi paytda farzand tarbiyasida psixologlarni o‘ziga yordamchi deb biladigan ota-onalar ko‘paydi. Bu psixologlarning tajribasi va malakasini oshirish, shuningdek, qayta tayyorlash ham zarurligini ko‘rsatyapti. Endi malaka oshirish kurslariga hududiy pedagogika oliy ta‘lim muassasalari mutaxassislarini trener sifatida jalb etish ko‘zda tutilayotgani maqsadga muvofiq.

Psixologlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun esa KPI tizimi ishlab chiqiladi. Bugun ushbu tizim qaysi sohaga tatbiq etilmasin, o‘zini oqlayotganiga

guvoh bo‘lyapmiz. Maktab direktori va o‘rinbosarlariga KPI shaklida har oylik ustama to‘lash tartibi belgilangani ham bejiz emas. Bugun chin dildan ishlagan, lavozimi bo‘yicha belgilangan talablariga javob bergan xodimlar ham rahmat, ham rag‘bat olyapti. Demak, psixologlar faoliyatida ham bu tizim



yaxshi natija berishi aniq. Ayniqsa, ota-ona bilan ishlashdagi yutuqlar, bolani to‘g‘ri yo‘lga solish, maktabda turli ko‘ngilsizliklar bo‘lmasligi kabi ko‘rsatkichlar ularning samarali ishlayotganini ko‘rsatadi. Ish unumdorligi ortgan psixolog esa hozirgi maoshi bilan qolib ketmaydi, mukofot puli, ustamalar oladi.

Aksariyat maktab psixologlarini qiyinayotgan bir masala bor — alohida xona muammosi. Aslida, o‘zining xonasi bo‘lmagan psixolog faoliyatini baholash to‘g‘rimi? Bu sharoitdagi xodimlarni boshqalar bilan tenglashtirish adolatdanmi?

Bolalar bilan risoladagidek ishlash uchun alohida xona kerak, albatta. Agar psixologik xizmat uchun sharoit bo‘lmasa, bolaning kelgisi kelmaydi, — deydi Andijon shahridagi 1-ixtisoslashgan maktab-internet psixologi Gulnoza Ashurova. — To‘g‘ri, keyingi paytda javonimiz zarur kitobchalar bilan boyib boryapti. Yangi o‘quv yilini ham mukammal ilmiy-metodik qo‘llanmalar bilan boshladik. Bu o‘quvchilar uchun ham, biz uchun ham manfaatli bo‘ladi. Shuningdek, bunday metodik yordamlar lokomotiv sifatida umumta‘lim maktablari psixologlariga ish o‘rgatishimizda qo‘l keladi.

Maktab va ota-ona o‘rtasidagi ko‘prik

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 156-maktab amaliyotchi psixologi Farog‘at Shukurova ko‘plab hamkasblarini ota-onalar bilan ishlash masalasi qiyinayotganidan so‘z



ochdi. Masalan, tirikchilik uchun chet elga ketayotgan ayrim ota-onalar bolalarini bobomosi va boshqa qarindoshlariga qoldiradi. Muammolar asosan shunday bolalar bilan bog‘liq. To‘g‘ri, bu bo‘yicha vazirlik mas‘ul idoralar bilan hamkorlikda ishlaydi. Psixolog esa ota-ona, mahalla faollari bilan ham ishlashi kerak bo‘ladi. Zero, u ko‘ngli o‘ksik bolalarga mehr berish, ko‘nglini ko‘tarishga ham mas‘ul. Buning uchun psixologning o‘zi kuchli bo‘lishi zarur. Agar psixolog irodali bo‘lmasa, boshqalarga dalda berolmaydi.

Ota-onalar bilan ishlarni tashkil etish bo‘yicha ham mukammal dasturlar berilyapti. Jumladan, ota-onalarning psixologik muammolari, yoki oilaning maktab bilan munosabatlari haqidagi fikrlarni o‘rganish uchun so‘rovnomalarni tayyorlanayotir. 18 soatlik maxsus kurs uchun dastur tasdiqlangan va u asosida kontent ham ishlayapti. Kontent va onlayn kurs yagona raqamli ta‘lim resurslari va xizmatlari portalida joylashtiriladi hamda uni har bir psixolog o‘qishi mumkin. Shuningdek, yagona raqamli ta‘lim resurslari ochiq portali yaratildi. Portalni ota-onalar ham kuzatib, farzandi bilan psixologik savollarga javob berishi mumkin. Zero, savollarning javobi bolaning fe‘l-atvorini ochib beradi.

Xalqaro ta‘lim dasturi o‘zbek tilida bo‘ladi

Maktab psixologlariga mahallada uyma-u yurib, “Temir daftar”, “Ayollar daftri”ga kiritilganlar bilan ishlash, o‘quvchilarning darsdan keyin bandligiga doir hujjatbozliklar kabi yuklamalar yuklatilgan. Natijada ularning asosiy ishlari qolib ketayotgani haqidagi e‘tirozlarga javoban mutasaddilar psixologlarga ancha yengilliklar berilayotganini ma‘lum qildi.

Ta‘lim tashkilotlarida psixologik xizmatning asosiy vazifalari — pedagoglar va o‘quvchilar jamoasida sog‘lom muhit yaratish, ularning muammolarini tizimli hal etish, qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilar o‘rtasida salbiy holatlar vujudga kelishining oldini olishdir. Jumladan, maktab yoshidagi o‘smirlar ehtiyoji, ruhiy salomatligi va farovonligiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganish, bolaga nisbatan aks ta‘silarni yumshatish va hal qilishga yo‘naltirilgan siyosatni yanada takomillashtirishga bugunning dolzarb vazifasi sifatida qaralmoqda, — deydi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori o‘rinbosari Mashhurbek Xoldorov. — Psixolog asosiy vazifalari bilan mashg‘ul bo‘lsa, o‘z ustida ko‘proq ishlashga ham ulguradi. Ulariga toifa berish amaliyoti 2025-yildan boshlab joriy etildi. Bu orqali mutaxassis psixologlar o‘zining kasbiy bilimini sinovdan o‘tkazib, toifaga ega bo‘lishi uchun imkoniyat yaratildi. Bu yilgi jarayonlarda 3190 nafar mutaxassis attestatsiya sinovida qatnashdi. Mutaxassis sifatida qatnashganlardan 419 nafarining toifasi oshgan. Qariyb 80 foiz psixolog qoniqarsiz natija ko‘rsatgan. Navbatdagi attestatsiya jarayoni esa shu yilning 7-noyabrda bo‘lib o‘tadi. Psixologlarimizning bu galgi natijalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi deb umid qilamiz. Zero, yangi o‘quv yilidan tatbiq etilgan ba‘zi qulayliklar ularga bu borada yordam bergan bo‘lsa, ajabmas. Chunki toifa sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan psixologlarning kasbiy bilimni mustahkamlanadi, oylik maoshiga ustama qo‘shiladi.

Mutasaddilarning aytishicha, 3 yil ichida psixologiya yo‘nalishida 14 ta pedagogika oliy ta‘lim muassasasida xalqaro ta‘lim dasturi o‘zbek tilida joriy qilindi. Bu ko‘plab psixologlarni tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Mahorati, o‘ziga ishonchi baland xodimlar yetarli bo‘lsa, kadrlar qo‘nimsizligi ham kamayadi. Ayniqsa, poytaxt maktablarda muqim ishlaydigan psixologlar kam. Hatto 3000 ga yaqin o‘quvchiga ega maktablar bor. Shu ma‘noda, bunday kadrlarning KPI tizimi bo‘yicha ustama olishi, qo‘shimcha rag‘batlantirilishi juda to‘g‘ri tadbir.

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Salomatlik

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholiga birlamchi tibbiy xizmatni yanada yaqinlashtirib, o‘rtacha umr ko‘rishni uzaytirish kabi qator vazifalar belgilangan. Shuningdek, joriy yil 19-mayda Prezidentimizning “Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Ushbu hujjatlar ijrosi doirasida Surxondaryoda ham amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, Termiz shahrida loyiha qiymati 78,7 milliard so‘mlik tibbiyot klasteri bunyod etildi.



TERMIZ TIBBIYOT KLASTERI — inson qadri va sog‘lom turmush kafolati

Klaster binosida 300 o‘rinli tibbiyot markazi, 450 o‘rinli o‘quv xonalari va konferensiyalar zali mavjud. Yangi muassasa ishga tushgach, surxonliklar boshqa hududlarga borib shifo izlamaydigan bo‘ladi. Chunki klasterda yuqori texnologik tibbiy muolajalar amalga oshirilayapti. Bu yiliga o‘rtacha 14,3 milliard so‘m mablag‘ni tejash imkonini yaratadi.

— Tibbiyot klasteri sabab o‘ndan ortiq yo‘nalish bir joyga jamlandi, — deydi viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori Botir Mamasoatov. — Bu yerda aholi orasida tez-tez uchrayotgan yurak ishemik kasalligi, buyrak va jigar transplantatsiyasi amaliyotlari bajarilayapti.

Ayni paytda viloyatdagi tibbiyot xodimlari malakasini oshirish, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda. Hozir aholiga 42 ming 278 shifokor xizmat ko‘rsatmoqda. Bir vaqtning o‘zida tibbiyot klasterida zaxira kadrlar tayyorlanmoqda. Bu yerda Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali talabalari amaliyot o‘taypti.



— So‘nggi yillarda “Tibbiyotdagi islohotlar inson qadri uchun” g‘oyasiga asoslangan yangiliklar katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Xususan, Termizda Toshkent davlat tibbiyot universiteti filiali ochildi. Bu vohada tibbiyotning sezilarli o‘ssishini ta‘minlab, barqaror kadrlar sinfini yaratmoqda, — deydi filial direktori Furqat Otamurodov. — Talabalarimiz tibbiyot klasterida amaliyot o‘tamogda.

Tibbiyot klasteri zamonaviy apparatlar bilan jihozlangan. Bu, o‘z navbatida, aholiga tekzor, sifatli xizmat ko‘rsatish va davolashning zamonaviy usullarini keng joriy etishda qo‘l kelmoqda.

Lola Xudoyqulova Sherobod tumanining Tarog‘li mahallasida yashaydi. Uning ikki farzandi bor. O‘g‘li Umiddjon xasta bo‘lgani

Unga ko‘ra, tibbiyot klasteriga 1 milliard 938 million so‘m ajratilib, olti turdagi tibbiy asbob-uskuna xarid qilindi. Natijada travmatologiyada endoprotezlash, urologiyada endourologiya, toraka abdominal xirurgiyada murakkab jarrohlik amaliyotlari yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari viloyat filiallarida ham yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilmoqda. Natijada urologiyada 85-90, neyroxirurgiyada 80-85, travmatologiyada 65-70, xirurgiya va kardiologiyada 55-60 foiz bemor viloyatda davolanishiga erishildi.

— Tibbiyot klasterida viloyatda ilk bor jigar transplantatsiyasi amaliyoti o‘tkazila boshlandi, — deydi tibbiyot fanlari doktori Jasur Sobirov. — Yaqinda Toshkentdan kelgan shifokorlar

bilan hamkorlikda jigar ko‘chirish amaliyotini o‘tkazdik. Natija muvaffaqiyatli bo‘ladi. Bunday jarrohlikning viloyatda o‘tkazilishi mahalliy shifokorlar malakasini oshirishga yaxshi imkoniyat bo‘ladi.

Klaster sabab tibbiyot markazlarining bir-birini takrorlaydigan boshqaruv va klinik bo‘limlari optimallashtirildi. Bir xil vazifa bajaradigan kadrlarga ehtiyoj kamayib, mutaxassislar bilan ta‘minlanish yaxshilandi. Tibbiyot muassasalarining markazlashishi hisobiga yuqori texnologik asbob-uskunalar talab kamayadi. Bu sohada xarid xarajatini qisqartirib, sifatini yaxshilaydi. Surxondaryoda tibbiyot klasteri sabab 12 ta markaz bir joyda jamlandi. Natijada viloyat tibbiyoti uchun sarf etiladigan mablag‘dan bir yilda o‘rtacha 14 milliard 355 million so‘m tejash imkoni bo‘ladi.

Sohada shaffoflikni ta‘minlash maqsadida elektron order tizimi yo‘lga qo‘yildi. Endi bemorlar imtiyozli orderni to‘g‘ridan to‘g‘ri elektron shaklda olyapti.

— Viloyatimizda 51 bemorni buyrak va jigar ko‘chirib o‘tkazishga tayyorlash, laboratoriya tekshiruvlari uchun 765 million so‘m, dori-darmonga esa 300 million so‘m ajratildi. Markazda tibbiy sug‘urta yo‘nalishi bo‘yicha ish tashkil etilib, davlat tibbiy sug‘urtasidan mablag‘ tushirib berildi, — deydi Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi viloyat bo‘limi boshlig‘i Boboxon Shukurov.

Surxondaryoda 2020-yilda tibbiyotga 920,5 milliard so‘m ajratilgan edi. Bu ko‘rsatkich joriy yilda bir necha barobar oshgan. Bundan tashqari, xodimlarga zaruriy shart-sharoit yaratish, mehnatiga yarasha haq to‘lash choralarini ko‘rilyapti.

Sarvar TO‘RAYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MOUASSIS: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146. 34685 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qozog’ o’ bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug’murodov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro’ziyev

Manzilibiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

O’za yakuni — 06:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.